



POLAND



POLAND

DUAL TA'LIM

Nazirjon Azimjanov

Turan International University

PhD dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21972388>

Annotatsiya: Ushbu maqolada dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4k" ta'lim jarayonlarini tashkil etish haqida batavsil yoritilg

Kalit so'zlar: Dual ta'lim, kredit modul tizimi, differensiyallash, integrativ va innovatsion texnologiyalar, uzluksiz ta'lim, tanqidiy tafakkur, xalqaro standart, hamkorlik, kreativlik, faol o'qish, kasbiy mobillik, tashabbuskorlik.

Jahonda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish va variativ modellashtirish borasida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda: integratsiyalashgan va differensiyallashgan ta'lim asosida talabalarning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, integrativ va innovatsion texnologiyalarga tayangan holda oliy ta'lim jarayonida kredit-modul tizimini joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish, mutaxassis-kadrlarni tayyorlash tizimini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish modellari bilan uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish, pedagogik ta'limda talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullarini tadqiq etish, ta'lim jarayonida axborot modellaridan foydalanish yo'llarini takomillashtirish. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, amaliy-vaziyatli topshiriqlarga yechim topish jarayonida ularda refleksiv qobiliyatni rivojlantirish, umumkasbiy va ixtisoslikka doir o'quv modullarini o'zlashtirishda fanlararo integrativ loyihalash, dual ta'lim jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarblik kasb etadi.

YUNESKO Ta'limning xalqaro standart tasnifiga muvofiq, dual ta'lim mamlakatlarning kasbiy ta'lim tizimini hisobga olgan holda o'quv jarayonini ishlab chiqarishdagi amaliy faoliyat bilan uyg'un tarzda o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni nazarda tutadi.

Bo'lajak pedagog xodimlarni tayyorlashning dual modeli – bu oliy va xalq ta'limining o'zaro birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati asosiga qurilgan innovatsion o'qitish tizimi bo'lib, uch metodologik asosga tayanadi: aksiologik (insonparvar va texnologik qadriyatlarning teng ahamiyatga egaligi); ontologik (kompetentli yondashuv); texnologik (kasbiy faoliyatni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish, ijtimoiy-kasbiy munosabatlar).

Dual ta'lim tizimi bir qator mamlakatlarda, xususan Germaniya, Xorvatiya, Avstriya, Bosniya va Gersegovina, Serbiya, Daniya, Sloveniya, Chernogoriya,



POLAND



POLAND

Shveysariya, Gollandiya va Fransiya singari 60 ga yaqin davlatlarda, so'nggi yillarda esa Xitoyda va boshqa Osiyo mamlakatlarida qo'llanilmoqda.

Germaniyadagi yoshlar uchun dual ta'lim - bu mustaqillikka erta erishish va kasbiy-mehnat faoliyatiga moslashish uchun ajoyib imkoniyatdir. Boshqa davlatlardan farqli o'laroq, Germaniyada ta'lim sohasidagi asosiy yuk har yili o'z xodimlarining kasbiy malakasini oshirishga 40 milliard yevrodan ko'proq mablag' sarflaydigan korxonalar zimmasiga tushadi. Bu miqdor davlatning universitetlarni moliyalashtirish uchun sarflagan xarajatlaridan ko'proqdir. Davlat kasb-hunar maktablari tizimini moliyalashtirish orqali korxonada mutaxassislar tayyorlashni qo'llab-quvvatlaydi. Talabalar dual ta'lim tizimidagi o'quv muassasalariga qatnaydilar. Davlatning asosiy vazifasi qonunchilik bazasini muvofiqlashtirish va ta'minlashdir. Federal darajada Germaniya "Kasb ta'limi to'g'risida" qonunni va talabalarining korxona va o'quv muassasasi bilan munosabatlarini tartibga soluvchi Kodeksni qabul qilgan. Ushbu qonun shuningdek, qaysi korxonalar dasturda qatnashishi mumkinligini belgilaydi.

Ma'lumki, talabalar oliy ta'lim jarayonida egallagan bilimlarini aniq amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiynaladilar va ulardagi ko'nikmalar asosan reproduktivlik kasb etadi. Shundan kelib chiqqan holda Respublikamizning pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini dual ta'lim tamoyili asosida tashkil etish, pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali shaxsning individualligini namoyon etishiga ko'maklashish, ta'lim mazmunining esa variativligini ta'minlash muhim vazifalar sifatida belgilanib, bu borada keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida raqobatbardosh va kreativ fikrlaydigan novator kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ilk bor o'qitish shakli sifatida dual ta'limning huquqiy maqomi belgilab berildi.

R.Choriyev tomonidan kasb ta'limi mutaxassislari dual ta'lim tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalasi o'rganilgan¹ bo'lsa, U.Turamurodov esa dual ta'lim sharoitida psixolog xodimlarni tayyorlash muammosini tadqiq etgan².

¹ Чориев Р. Касб таълими мутахассисларини дуал таълим тизими асосида касбий фаолиятга тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. (Техника олий таълим муассасаларида "Касб таълими" йўналиши мисолида). Пед. фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси автореферати. -Тошкент, 2020. – 60 б.

² Турамуродов У.У. Таълим тизими учун психолог кадрлар тайёрлашнинг дуал таълим технологиялари. Пед.ф.б.ф.д. PhD дисс. – Термиз, 2022. – 154 б.



POLAND



POLAND

Dual ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni mashg'ulotlarni "4+2" tartibida tashkil etish orqali amalga oshiriladi. 2022-2023 o'quv yilidan boshlab Toshkent shahridagi 5 ta hamda hududlardagi 17 ta pedagogik oliy ta'lim muassasalari doimiy tarzda maktablarga biriktirildi. Talabalar 1-kursdanoq maktablar bilan bog'liq tarzda o'qishi yo'lga qo'yildi. Mazkur faoliyat samaradorligini oshirishda albatta refleksiv bilim va ko'nikmalar talab etiladi. Bu esa zamonaviy sharoitda bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning innovatsion tizimini joriy etish, refleksiv qobiliyatga ega mutaxassislarni tayyorlashning yangi modellarini ishlab chiqish zaruriyatini belgilaydi. Xalq ta'limi tizimida o'qitish sifatini oshirish pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv qobiliyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, bunda dual ta'limning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish lozimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahririda "dual ta'lim" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi"³.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan rasmiy qaror va farmonlarda ham mazkur ta'lim modelini pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoniga jadal tatbiq etish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, jumladan darslarning 4 kuni oliy ta'lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash tartibida olib borilishini ta'minlash"⁴ ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

³ Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон, 12.10.2021 й., 03/21/721/0952-сон.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 21 июндаги ПҚ-289-сон "Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.06.2022 й., 07/22/289/0562-сон.



POLAND



POLAND

“Dual ta’lim” tushunchasi “tor” va “keng” ma’nolarda qo’llaniladi. Tor ma’noda dual ta’lim - o’qishning nazariy qismini oliy ta’lim tashkilotlarida, amaliy jihatlarini esa ish beruvchi tashkilotda amalga oshirishni belgilovchi, ta’limning yangi shakli hisobalandi.

Mohiyatiga ko’ra bu – o’quv dasturi doirasida bo’lg’usi ta’lim tashkilotida amalga oshiriladigan pedagogik amaliyotning maxsus shaklidir. Ta’lim tashkilotining ish beruvchi bilan o’zaro hamkorlikdagi faoliyatga kirishishi oliy ta’lim tizimidan talab qilinadigan kasbiy kompetensiyalarni ham, talabaning kasb standartida belgilangan mehnat vazifalarini amalga oshirishga tayyorligini ham samarali shakllantirish imkonini beradi.

Keng ma’noda dual ta’lim hududlarning ehtiyojini hisobga olish orqali: pedagogik kadrlarga bo’lgan talab aniqlanadigan; ularning kasbiy malakasini monitoringini olib borish va baholash amalga oshiriladigan; kasbiy o’sish va kasbni o’zlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladigan; pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo’yicha aralash o’qitish modellari amalga oshiriladigan; kadrlarni tayyorlashni boshqarish jamoatchilik tizimi orqali amalga oshiriladigan o’ziga xos modelini ko’zda tutadi.

Bugungi kunda dual ta’lim tizimi bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashning kasb standartlariga muvofiq keluvchi eng istiqbolli yo’nalish bo’lib hisoblanadi. Dual ta’lim modeli quyidagi omillar sababli yanada katta e’tiborni o’ziga jalb qilmoqda:

1. O’quv rejaları ish beruvchilarning takliflarini hisobga olish bilan tuziladi, ular o’zlarining mutaxassislariga bo’lgan ehtiyojlari asosida ta’lim tashkilotlariga konkret buyurtmalarni shakllantiradilar. Ish beruvchilar ta’lim jarayonining manfaaddor ishtirokchilari sifatida namoyon bo’ladi, ta’lim mazmunini tanlash, uni amalga oshirish jarayonlarini belgilashda ham faol tarzda ishtirok etadi.

2. Talabalar pedagogik amaliyotni ish joyida o’tash va kasb standartida belgilab berilgan bo’lg’usi o’qituvchilik faoliyatiga xos amaliy faoliyat tajribasini egallash imkoniga ega bo’lishadi.

3. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta’minlaydigan maxsus kompetensiyalar talabalar tomonidan uzluksiz ta’lim muassasalarida dual ta’lim texnologiyalar asosida o’zlashtiriladi.

4. Talabaning uzluksiz ta’lim muassasalarida real pedagogik jarayonga jalb qilinishi nafaqat mehnat harakatlari, zaruriy bilimlar va ko’nikmalarni egallashga ko’maklashib qolmasdan, balki shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuviga ham imkoniyat yaratadi, ularda hamkorlikda ishlashga oid ko’nikmalarning shakllanishini ta’minlaydi.



5. Amaliyotchi talabalarining ta'lim muassasalarida uzluksiz pedagogik amaliyot o'tashi ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, kasbiy faoliyatni talaba tomonidan samarali egallash shakl va metodlarini topish imkonini beradi.

Dual ta'lim konsepsiyasini yaxshiroq tasavvur qilish uchun o'qitishning quyidagi maqsad, vazifa va tamoyillarini qayd etish lozim.

Dual ta'lim sharoitiga xos o'qitish maqsadlari:

- bo'lajak pedagog xodimlar tayyorlashning samarali tuzilmasini shakllantirish orqali kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish;
- bo'lajak pedagoglarni tayyorlash mazmunini belgilab beruvchi o'quv reja va dasturlarga zamonaviy o'qitishning shakl, metod va vositalarini kiritish;
- uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish;
- bo'lajak pedagoglarning kasbiy standartlarini takomillashtirish.

Dual ta'lim modeliga xos o'qitish vazifalari:

- bo'lajak pedagog xodimlarni tayyorlash tizimini mehnat bozoridagi talablar asosida qayta tashkillashtirish;
- ijtimoiy hayot va mehnat bozorining ehtiyojlariga mos keladigan kasbiy ta'lim tashkilotlari klasterini yaratish.
- o'quv dasturlari va uning tarkibiy asoslarini kasbiy mobillikni ta'minlaydigan tarzda o'zgartirish va tubdan takomillashtirish.
- bo'lajak pedagog xodimlar tayyorlashning moddiy-texnik va metodik ta'minotini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. (23.09.2020) // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020., 03/20/637/1313-сон.
2. Иноятлов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления и контроля качества образования в профессиональном колледже: дисс.докт.пед. наук : 13.00.01 / У.И.Иноятлов; Ташкент, 2003. – 236 с.
3. Мусурмонова О. “Таълим менежерининг касбий компетентлиги ва креативлиги” модулининг ўқув-услугий мажмуаси. – Т.: БИММ, 2015.– 288 б.
4. Хомский Н. Аспекты теории синтаксиса // Перевод с английского под редакцией и с предисловием В.А. Звегинцева // Изд-во Московского университета, 1998. – 233 с.
5. Педагогический словарь / Под ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: «Академия», 2008. – С.41.